

O'RTA NERV NEVROPATIYASI

Etiologiyasi. O'rta nerv (*n. medianus*) yelka va tirsak suyaklari jarohatlarida ko'p zararlanadi. Shuningdek, qo'l mehnati bilan shug'ullanuvchi kasb egalari, ayniqsa, duradgor, temirchi va o'ymakorlarda o'rta nerv ko'p zararlanadi. Shuningdek, kubital venaga in'eksiya qilish paytida ham bu nerv zararlanishi mumkin.

Klinikasi. O'rta nerv innervasiya qiladigan sohada kauzalgiya tipidagi kuchli og'riqlar, gipesteziya, muskullar atrofiyasi va kuchli vegetativ buzilishlar kuzatiladi. Bemor qo'lini musht qila olmaydi, bosh va ko'rsatkich barmoqlari bukilmaydi, 1- va 5-barmoqlar uchini bir-biriga tegiza olmaydi. Bilakni pronasiya qilish qiyinlashadi. Bosh barmoq muskullari (tenar) atrofiyaga uchraydi va buning oqibatida kaft juda silliqlashib qoladi. *M. opponens* atrofiyasi sababli 1-barmoq osilib qolgan barmoqlar qatorida turadi. Kaftdagi bu o'zgarishlar sababli qo'l panjasi xuddi maymun panjasiga o'xshab qoladi (5.5-rasm).

Sezgi buzilishlari og'riq kuzatiladigan joylarga qaraganda kamroq joyni egallaydi. Chunki teri innervasiyasi saqlanib qolgan boshqa nervlar hisobiga qoplanadi. Qo'l panjasining radial yuzasi va 1-, 2-, 3-barmoqlar hamda 4-barmoq yarmining kaft yuzasida gipesteziya kuzatiladi.

Manba: © Z. Ibodullayev. *Asab kasalliklari. 2-nashr. Darslik, Toshkent, 2021., 960 b.*

© Z. Ibodullayev. *Umumiy nevrologiya. Darslik. Toshkent, 2021., 312 b.*

© Ibodullayev ensiklopediyasi

© www.asab.uz